Materiallar to’plami · Conference Proceedings
QATAG‘ON QURBONLARI: TARIXIY XOTIRA, MILLIY O‘ZLIK VA MA’NAVIY MEROS
10 September – 10 October 2026
UDK 342

YANGI O‘ZBEKISTONDA PREZIDENT SIYOSATI VA HUQUQIY ISLOHOTLAR: QONUN USTUVORLIGI HAMDA INSON QADRINI YUKSALTIRISHNING YANGI BOSQICHI

O’zbekxon Dilshodbek o’g’li Jo’rayev*
Farg’ona davlat unversiteti, Huquqshunoslik fakulteti, Yurisprudensiya yo’nalishi 3-bosqich talabasi
✉ jurayevxofiz@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada Yangi O‘zbekistonning 2026-yilgi davlat va islohotlar dasturlari huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Hujjatlarning farqli jihatlari, KPI tizimi, jamoatchilik nazorati va xorijdagi vatandoshlar takliflari o‘rganilgan. Sud-huquq, ekologiya va iqtisodiy modellardagi strategik o‘zgarishlar hamda ularning inson qadrini ta’minlashdagi roli yoritilgan.

Kalit so‘zlar

Islohot, Davlat dasturi, Strategiya, KPI, Xalq vakillari, Eksport, Konstitutsiya, Nazorat, Inson qadri, Budjet.

DOI: 10.5281/zenodo.23279462

KIRISH

Har qanday davlatning huquqiy va siyosiy tizimi quruq raqamlar bilan emas, balki qabul qilingan qonunlarning jamiyat hayotini qanchalik o‘zgartira olgani bilan o‘lchanadi. O‘tgan davr mobaynida hayotimizning barcha jabhalarini qamrab olgan 300 ga yaqin qonun va 4 mingdan ziyod Prezident qarorlari shunchaki statistik ko‘rsatkich emas. Bu — eskirgan, byurokratlashgan davlat apparatini xalqqa xizmat qiladigan mutlaqo yangi tizimga aylantirishning huquqiy poydevoridir.

Huquqshunos sifatida jarayonni kuzatganda, eng katta yutuq — davlat organlarining xalq oldidagi hisobdorligi va ochiqligi real mexanizmlarga ko‘chganidir. Ilgari yopiq bo‘lgan tizimlar, xususan, ijro hokimiyati idoralari bugun ommaviy axborot vositalari va faol fuqarolik jamiyati institutlari bilan hisoblashishga majbur bo‘lmoqda. Aholining siyosiy faolligi oshishi esa huquqiy madaniyatning yuksalayotganidan dalolat beradi.

Iqtisodiy jabhadagi islohotlar qog‘ozda qolib ketmadi. Tashqi savdo, soliq va moliya sohalarining liberallashtirilishi tadbirkorlik sub'ektlariga erkin nafas olish imkonini berdi. Xususiy mulk daxlsizligining qonuniy kafolatlari kuchaytirilgani bois, investitsiya muhiti barqarorlashdi. Eng muhimi, davlat kambag‘allikni qisqartirish va ijtimoiy himoyani kuchaytirishni o‘zining fundamental burchi deb tan oldi. Tibbiyot, ta’lim va munosib yashash sharoitlari yaratish masalasi endi xizmat ko‘rsatish emas, balki insonning kafolatlangan huquqi sifatida ko‘rilmoqda.

Ushbu besh yillik izchil rivojlanish davri ortda qolib, biz Yangi O‘zbekistonni barpo etishning eng muhim siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma’rifiy bosqichiga qadam qo‘ydik. Global miqyosdagi murakkab va ziddiyatli geosiyosiy jarayonlar fonida davlatimiz endi yangi, yanada yuqori strategik tamoyilni amalga oshirishga kirishmoqda.

Bu tamoyil — “Inson qadri uchun” g‘oyasidir. Keyingi yillardagi islohotlarimizning butun mag‘zi aynan shu konseptga tayanadi: xalq farovonligini oshirish, iqtisodiyotni to‘liq transformatsiya qilish va inson huquqlarini so‘zsiz ta’minlaydigan faol fuqarolik jamiyatini barpo etish. Aynan mana shu maqsad yo‘lida davlat taraqqiyotning mutlaqo yangi, ustuvor yo‘nalishlarini belgilab oldi va bu yo‘ldan ortga qaytish yo‘q.

Davlat boshqaruvi va huquqshunoslikda shunday aksioma bor: barqaror islohotlar hech qachon bo‘sh joyda yaratilmaydi, ular izchil tarixiy asosga ega bo‘ladi. Mamlakatimizda o‘tgan yillar davomida Harakatlar strategiyasi doirasida qabul qilingan 300 ga yaqin qonun va 4 mingdan ziyod Prezident qarorlari jamiyatda mutlaqo yangi huquqiy ekotizimni shakllantirdi. Iqtisodiyotni liberallashtirish, xususiy mulk daxlsizligi va eng muhimi — ijro hokimiyatining xalq oldidagi ochiqligi Yangi O‘zbekiston poydevorini qo‘ydi.

Davlatimiz rahbari Mustaqillikning 35 yillik bayrami tantanasida so‘zlagan nutqida ushbu taraqqiyot bosqichlarini chuqur sarhisob qilib, o‘ta muhim bir falsafiy haqiqatga e’tibor qaratdi: *“Buyuk istiqlolimizning ildizlari uch ming yildan ziyod bo‘lgan davlatchilik an’analarimiz va qadimiy sivilizatsiyamiz tarixiga borib taqaladi”*. Bu degani, bugungi huquqiy va siyosiy islohotlarimiz shunchaki bugun paydo bo‘lib qolgan trend emas, balki tarixdan kelayotgan milliy o‘zligimiz va jadid bobolarimizning amalga oshmagan huquqiy-ma’rifiy orzularining amaldagi in’ikosidir.

Huquqshunos nuqtai nazaridan qaraganda, 35 yillik dovonda davlat o‘zining kelgusi o‘n yillik taraqqiyot modelini e’lon qildi. Bu davr mamlakat uchun **milliy** yuksalish davri bo‘ladi. Eng muhimi, oldingi bosqichda erishilgan natijalar (yalpi ichki mahsulotning barqaror o‘sishi, kambag‘allikni qisqartirish siyosati) endi yangi bosqichga — inson kapitaliga investitsiya kiritish davriga o‘tmoqda.

Prezident o‘z ma’ruzasida inson qadrini amalda ta’minlashga qaratilgan mutlaqo yangi 7 ta milliy dasturni e’lon qildi. Ularning huquqiy va ijtimoiy asosi juda salmoqli:

Bilim va malakani asosiy kapitalga aylantirish: Ta’lim tizimini to‘liq bozor ehtiyojlariga moslashtirish.

Tibbiyotda salomatlikni asrash modeli: Kafolatlangan tibbiy sug‘urtani har bir xonadonga kiritish.

Iqtisodiy ulkan marra: 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulot hajmini 300 milliard dollarga yetkazish.

Ekologik mas’uliyat: Suv va tabiatga munosabatni qonuniy va ijtimoiy jihatdan tubdan o‘zgartirish.

Huquqiy kafolatlar: Fuqarolar va tadbirkorlarning qonuniy himoyasini, sud mustaqilligini so‘zsiz ta’minlash.

Mahalla — boshqaruv o‘zagi: Mahallani jamiyat taraqqiyotining asosiy buyurtmachisiga aylantirish.

Muvozanatli tashqi siyosat**:** O‘zbekistonni xalqaro diplomatiyaning muhim markazi sifatida namoyon etish.

Nutqdagi eng kuchli insoniy argument xalq va davlatning birligiga qaratildi: *“Biz bugun kechagidan kuchlimiz. Nasib etsa, ertaga bundan ham kuchli bo‘lamiz”*. Xalq hokimiyatchiligi prinsiplariga tayanadigan har qanday huquqiy davlatda fuqaroning o‘z davlatiga ishonchi eng oliy siyosiy yutuq hisoblanadi. Biz bosib o‘tgan Harakatlar strategiyasi yo‘li va bugungi 35 yillik marrada belgilangan dasturlar Yangi O‘zbekistonning ortga qaytmas islohotlar yo‘liga kirganini qonuniy jihatdan isbotlab turibdi.

Huquqshunoslik va davlat boshqaruvida uzoq yillardan buyon davom etib kelayotgan eng katta og‘riqli nuqta — bu qabul qilingan dasturlarning amaliyotda oqsashi, ya’ni ”hujjatbozlik” edi. Biroq, Prezident Shavkat Mirziyoyevga taqdim etilgan 2026-yilgi Davlat dasturi va maxsus Islohotlar dasturlari loyihalari davlat boshqaruvida mutlaqo yangi, amaliy burilish boshlanganidan dalolat beradi. Ekspert sifatida qarasak, bu yilgi yondashuvda qat'iy bir inqilobiy yangilik bor: davlat endi shunchaki ”hujjat ishlab chiqish” bosqichidan ”aniq natijaga erishish”, ya'ni KPI tamoyiliga o‘tmoqda.

Boshqaruv tizimidagi chalkashliklarga barham berish uchun bu yil ikki xil mexanizm o‘zaro ajratib olindi. Buni tushunish oddiy fuqaro uchun ham, huquqshunos uchun ham juda muhim. Birinchisi — Islohotlar dasturlari bo'lib, ular davlat rahbarining Murojaatnomasida ilgari surilgan eng ustuvor va strategik yo‘nalishlarni qamrab oladi. Bunga mahallalar infratuzilmasini yaxshilash, innovatsion o‘sish, yangi mehnat bozori arxitekturasini yaratish, ekologiya va sud-huquq tizimini takomillashtirish kiradi. Eng muhimi, bu dasturlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilish mexanizmiga ega, ya'ni ayrim tashabbuslar bo‘yicha alohida qo‘shimcha hujjat qabul qilib o‘tirish shart emas. Har bir islohot uchun shaxsan javobgar rahbar va mas’ul vazirlik belgilab qo‘yilgan.

Ikkinchisi — “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturidir. Bu dastur strategiyaning 2026-yil uchun belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarini amalda bajarishga qaratilgan bo‘lib, u 337 ta banddan iborat ulkan chora-tadbirlar rejasini o‘z ichiga oladi. Dastur doirasida sohalar kesimida eng muhim 59 ta va strategik islohotlarni nazarda tutuvchi 12 ta normativ-huquqiy hujjat loyihasi ishlab chiqiladi.

Ushbu hujjatlarning huquqiy va siyosiy qiymati shundaki, ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri xalq irodasiga tayanib yaratildi. Yanvar va fevral oylarida o‘tkazilgan jamoatchilik muhokamalarida internet orqali 5 milliondan ortiq foydalanuvchi qatnashib, 22 mingdan ziyod fikr va takliflar bildirdi. Oliygohlar va tashkilotlarda o‘tgan 50 dan ortiq jonli uchrashuvlarda 10 mingga yaqin talaba, professor va davlat xizmatchilari, shuningdek, xorijdagi vatandoshlarimiz o‘z tashabbuslari bilan ishtirok etishdi. Tahlillar natijasida fuqarolar tomonidan bildirilgan 1000 ga yaqin eng konstruktiv takliflar saralab olinib, Davlat dasturining yakuniy loyihasiga kiritildi.

Xalq ichidan chiqib, dasturga kiritilgan eng dolzarb huquqiy va ijtimoiy o‘zgarishlar esa har qanday professional huquqshunosni quvontiradi. Ayniqsa, xotin-qizlar va bolalarga nisbatan zo‘ravonlik uchun jazoning yanada kuchaytirilishi hamda pedofiliya uchun umrbod ozodlikdan mahrum etish jazosining joriy qilinishi jamiyatda adolatni qaror toptirish yo‘lidagi eng keskin va to‘g‘ri qadam bo‘ldi. Sud tizimida shaffoflikni ta’minlash uchun jinoyat ishlari bo‘yicha sudlarda xalq vakillari hay’ati (присяжные заседатели) ishtirokining yo‘lga qo‘yilishi ham sud mustaqilligini yangi bosqichga olib chiqadi.

Bundan tashqari, korrupsiyaga qarshi kurashishni kuchaytirish, mahalla mablag‘lari sarfi bo‘yicha ochiq hisobdorlikni joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya ulushini 30 foizga yetkazish va daraxt kesganlik uchun javobgarlikni qat’iylashtirish kabi tashabbuslar ham to‘liq qo‘llab-quvvatlandi. Xulosa o‘rnida aytganda, 2026-yilgi Davlat dasturi va Islohotlar paketlari shunchaki qog‘ozdagi reja emas, balki har bir bandi ortida aniq ijrochining mas'uliyati, aniq muddati va xalqning real taklifi turgan jonli huquqiy hujjatdir

Islohotlar mezonini belgilashda nafaqat mamlakat ichidagi fuqarolar, balki xalqaro maydondagi o‘zbekistonliklar salohiyatidan ham unmli foydalanildi. Xususan, AQSh, Germaniya, Turkiya, Fransiya, Kanada, Koreya, Yaponiya, Shvetsiya, Portugaliya va Qozog‘istonda istiqomat qilayotgan vatandoshlar ishtirokida alohida uchrashuvlar tashkil etilib, undan 60 ga yaqin o‘ta muhim amaliy takliflar olindi.

Xorijdagi ekspert vatandoshlarimiz davlat va jamiyat boshqaruvining eng nozik nuqtalariga oid yechimlarni ilgari surishdi. Misol uchun, ta'lim sohasida nodavlat maktablar faoliyatini rivojlantirish uchun shaffof litsenziyalash hamda nazorat mexanizmlarini joriy etish taklifi qo‘llab-quvvatlandi. Shuningdek, amaliyot jarayonida o‘quvchilarga yo‘nalish beradigan korxona mutaxassislari uchun aniq rag‘batlantirish tizimini joriy etish belgilandi.

Sog‘liqni saqlash sohasida esa ayollar salomatligini asrash maqsadida bachadon bo‘yni va ko‘krak bezi saratoni bo‘yicha xavf guruhlarini aniq belgilaydigan yagona raqamli skrining tizimini joriy etish taklifi ma'qullandi.

Iqtisodiy islohotlar blokida ham eng ilg‘or xalqaro moliyaviy modellar aks etdi. Endilikda imtiyozli kreditlarni ajratishda ”natijaga bog‘langan imtiyoz” (performance-based subsidy) tizimi amaliyotga kiradi. Eksport qiluvchi korxonalar uchun esa mutlaqo yangi ”Export-as-a-service” modeli tatbiq qilinadi. Bu model logistika, bojxona, sertifikatlash, marketing va to‘lov masalalarini yagona operator orqali kompleks xizmat sifatida taqdim etishni ko‘zda tutadi. Huquqshunoslik hamjamiyati uchun ham muhim yangilik bor: advokatlar uchun elektron navbat olish jarayoni bo‘yicha maxsus qo‘llanma va videoyo‘riqnomalar tayyorlanishi belgilandi.

Ushbu ulkan islohotlar quruq deklaratsiyada qolib ketmasligi uchun ularning moliyaviy asosi va kafolati qat'iy belgilab qo‘yildi. Dasturlar ijrosini moliyalashtirishga jami 250,5 trillion so‘m mablag‘ ajratilishi hamda 50,4 milliard dollar miqdorida xorijiy investitsiyalar jalb qilinishi ko‘zda tutilgan. Bunday yirik kapital esa o‘z-o‘zidan juda qat’iy va bir necha bosqichli huquqiy nazoratni talab qiladi.

Shu sababli, Davlat dasturi ijrosi bo‘yicha Adliya vazirligi va Hisob palatasi doimiy ravishda monitoring olib borishi belgilandi. Vazirlar Mahkamasi har chorakda ijro holatini muhokama qiladi, har yarim yilda Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga hisobot beriladi va har oy Prezidentga tahliliy axborot kiritib boriladi. Bundan tashqari, har bir islohotlar dasturi uchun shaxsan biriktirilgan mas’ul rahbarlar har chorakda to‘g‘ridan-to‘g‘ri Prezidentga axborot beradi. Bosh vazir esa ushbu islohotlar dasturlaridagi tashabbuslarning amalga oshirilishi va moliyalashtirilishini muvofiqlashtirib, ijroni shaxsan nazoratga olish uchun mas’ul bo‘ladi.

Davlatimiz rahbari taqdimot qilingan loyihalar bilan batafsil tanishib, tegishli farmonni imzoladi hamda 2026-yilgi Islohotlar dasturlari va “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” davlat dasturini tasdiqladi. Yakuniy xulosa sifatida aytganda, barcha islohotlar va chora-tadbirlar shunchaki hisobot uchun emas, balki eng avvalo odamlar hayotida aniq natija berishi — yangi ish o‘rinlari ko‘payishi, aholi daromadlari o‘sishi

va odamlarning hayotdan rozi bo‘lishida o‘z aksini topishi shart qilib belgilandi.

2026-yilgi strategik hujjatlar paketining qabul qilinishi va amaliyotga joriy etilishi shunchaki navbatdagi reja emas, balki davlat boshqaruvida tub burilish yasovchi aniq natijalarni kafolatlaydi:

Ijtimoiy-huquqiy himoya mutlaqo yangi bosqichga chiqadi: Ayollar va bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish mexanizmlari keskinlashishi, pedofiliya uchun umrbod qamoq jazosining muhrlanishi hamda sudlarda xalq vakillari hay’atining ish boshlashi jamiyatda qonun ustuvorligiga bo‘lgan ishonchni real shakllantiradi.

Iqtisodiy o‘sish global integratsiyaga tayanadi: ”Export-as-a-service” va ”natijaga bog‘langan imtiyoz” kabi xalqaro moliyaviy modellarning kirib kelishi tadbirkorlik sub'ektlarini qog‘ozbozlikdan xalos etib, ichki va tashqi bozorda raqobatbardoshlikni jadal oshiradi.

Moliyaviy miqyos va daxlsizlik: Dasturlarga yo‘naltirilayotgan 250,5 trillion so‘m va jalb etilayotgan 50,4 milliard dollar investitsiya quyi bo‘g‘inda — mahallalar infratuzilmasida, yashil energiyada va ish o‘rinlarida o‘z aksini topadi.

Xulosa o‘rnida aytganda, 2026-yilgi Islohotlar dasturlari va Davlat dasturining bosh falsafasi — quruq hisobot berish amaliyotidan butkul voz kechib, har bir band bo‘yicha aniq natijaga (KPI) erishishdir. Adliya vazirligi, Hisob palatasi va parlament darajasidagi ko‘p bosqichli monitoring tizimi, shuningdek, Bosh vazirning shaxsiy javobgarligi har bir so‘m va har bir tashabbus xalq nazoratida bo‘lishini ta’minlaydi.

Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, har qanday islohotning oliy mezoni — bu qog‘ozdagi chiroyli raqamlar emas, balki oddiy odamlar hayotidagi real o‘zgarishlar, yangi ish o‘rinlari, daromadlar o‘sishi va aholining bugungi hayotidan rozi bo‘lishidir. Yangi O‘zbekiston o‘zining 2026-yilgi dovonida xalq irodasi va xalqaro tajribani birlashtirgan holda, ortga qaytmas taraqqiyot yo‘lidan dadil ketayotganini amalda isbotlamoqda.

Ushbu islohotlar arxitekturasining muvaffaqiyati nafaqat ulkan moliyaviy resurslar, balki jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasizlik va huquqiy madaniyatning shakllanishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Har oy Prezidentga taqdim etiladigan tahliliy axborotlar va Hisob palatasining doimiy monitoringi quyi tizimdagi byurokratik to‘siqlarni barvaqt aniqlash va bartaraf etishga xizmat qiladi. Davlat boshqaruvidagi ushbu yangi yondashuv — xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ham shaffoflik va barqarorlik kafolatini yaratadi.

Huquqshunos sifatida qayd etish joizki, barcha belgilangan chora-tadbirlar amaliyotda to‘liq ishlashi uchun uchta muhim omil ustuvor ahamiyat kasb etadi:

Ijro intizomining raqamlashtirilishi: Har bir rahbar va mas'ul davlat organiga yuklatilgan KPI ko‘rsatkichlari inson omilisiz, yagona elektron platforma orqali real vaqt rejimida baholab borilishi lozim. Bu qog‘ozdagi soxta hisobotlarning oldini oladi.

Jamoatchilik nazoratining faollashuvi: Fuqarolar va jamoat birlashmalari jamoatchilik muhokamasida ko‘rsatgan 5 millionlik faollikni dasturlar ijrosi davomida ham saqlab qolishlari shart. Mahalla budjetining sarflanishi va ichki yo‘llar qurilishi ustidan aholining bevosita nazorati korrupsiyaviy xavflarni nolga tushiradi.

Sud tizimining chinakam mustaqilligi: Jinoyat ishlarida xalq vakillari hay’atining (prizyajnie zasedateli) ishtirok etishi fuqarolarning sud tizimiga bo‘lgan ishonchini qayta tiklaydi va odil sudlovni ijro hokimiyatining har qanday yashirin bosimidan himoya qiladi.

Yangi O‘zbekiston o‘zining 2026-yilgi strategik dovonida barcha islohotlarning markaziga ”Inson qadri va manfaati” tamoyilini qo‘ydi. Xalqaro tajriba, vatandoshlarimizning innovatsion takliflari va davlatning kuchli siyosiy irodasi uyg‘unlashgan ushbu dasturlar mamlakatimizni iqtisodiy o‘sishning mutlaqo yangi va sifatli bosqichiga olib chiqishi muqarrar. Endigi asosiy vazifa — davlat mexanizmining har bir murg‘vati ushbu islohotlar sur’atiga mos ravishda, faqat va faqat xalq roziligi uchun xizmat qilishini ta’minlashdan iboratdir.

Ushbu amaliy strategiyalarning hayotga tatbiq etilishi, ”Inson qadri uchun” tamoyili shunchaki siyosiy ritorika emas, balki har bir fuqaroning kundalik hayotida seziladigan real huquqiy kafolatga aylanganini ko‘rsatadi. Professional huquqshunos nuqtai nazaridan baholaganda, 2026-yilgi Davlat dasturining muvaffaqiyati quyi bo‘g‘indagi ijro mexanizmlarining naqadar shaffof ishlashiga bog‘liq. Markaziy hokimiyat tomonidan belgilangan ko‘p bosqichli nazorat tizimi (Adliya vazirligi, Hisob palatasi va Parlament monitoringi) quyi tizimlarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ”idoraviy feodalizm” va sansalorlik illatlarini barvaqt jilovlash imkonini beradi.

Shu bilan birga, xorijdagi vatandoshlarimiz toji bo‘lgan innovatsion g‘oyalarning milliy qonunchilikka sintez qilinishi Yangi O‘zbekiston tashqi dunyo uchun ochiq, progressiv va doimo o‘rganishga tayyor huquqiy ekotizimga aylanganidan dalolatdir. ”Export-as-a-service” yoki kreditlashdagi natijadorlik modellari tadbirkorlik sub'ektlarini ma'muriy tazyiqlardan xalos etib, iqtisodiy mustaqillikni huquqiy jihatdan mustahkamlaydi.

Yakuniy xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, tarixiy 35 yillik dovondan o‘tgan mamlakatimiz bugun o‘z taraqqiyotining mutlaqo yangi, sifatli bosqichiga qadam qo‘ydi. 2026-yilgi islohotlar paketi shunchaki qog‘ozdagi reja emas, balki har bir bandi ortida xalq irodasi, aniq ijrochining shaxsiy javobgarligi va moliyaviy poydevori turgan jonli huquqiy hujjatdir. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, barcha islohotlarning oliy mezoni — bu qog‘ozdagi chiroyli raqamlar yoki hisobotlar emas, balki odamlarning hayotidan rozi bo‘lishi, yangi ish o‘rinlari yaratilishi va qonun ustuvorligining amaldagi tantanasidir.

Yangi O‘zbekistonning 2026-yilda boshlangan davlat boshqaruvidagi yangi falsafasi — hujjatlar sonini ko‘paytirish emas, balki amaldagi har bir qonun moddasining fuqaro farovonligi uchun ishlashini ta’minlashdir. Moliyalashtirish ko‘lami va belgilangan KPI tizimi shuni ko‘rsatadiki, davlat endi quyi tizimdagi sustkashlik va sansalorlikka toqat qilmaydi. Strategik marralar aniq, huquqiy poydevor mustahkam, endigi eng bosh vazifa — qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatining ushbu islohotlar mohiyatini quyi bo‘g‘inda bir xilda va og‘ishmay amalga oshirishini ta’minlashdan iboratdir. Aynan mana shu uyg‘unlik mamlakatimizni xalqaro hamjamiyatda kuchli, adolatli va insonparvar huquqiy davlat sifatida namoyon etishda davom etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI :

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.

2.O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy Qonuni.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil fevraldagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risidagi Farmoni.

4.Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. – Toshkent, 2026.

5. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (LexUZ)